TURKIY TILLAR PAREMIOLOGIYASIDA KOGNITIV VA PRAGMALINGVISTIK TADQIQOTLAR TAHLILI

Orazbaev Zaman Jumabaevich
O‘zR Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada turkiy tillar, jumladan, o‘zbek, qozoq va qoraqalpaq tilshunosligi misolida maqollarni kognitiv va pragmatik aspektda o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari tadqiq etiladi. Maqolada paremiologik birliklarni an’anaviy struktural yondashuvdan antropotsentrik paradigmaga o‘tkazish zaruriyati ilmiy jihatdan asoslab berilib, ularning xalq ma’naviy merosini, milliy tafakkuri va madaniy kodlarini aks ettiruvchi universal lingvokulturalogiyaviy hodisa sifatidagi o‘rni ochib ko‘rsatiladi.*

Kalit so‘zlar: *Paremiologiya, kognitiv lingvistika, pragmalingvistika, antropotsentrik paradigma, lingvokulturologiya, turkiy tillar, diskurs, madaniy kod.*

Аннотация: *В данной статье исследуются теоретико-методологические основы изучения пословиц и поговорок в когнитивном и прагматическом аспектах на материале тюркских языков, в частности узбекского, казахского и каракалпакского. В работе научно обоснована необходимость перехода от традиционного структуралистского подхода к антропоцентрической парадигме в исследовании паремиологических единиц, а также раскрыта их роль как универсального лингвокультурологического феномена, отражающего духовное наследие, национальное мышление и культурные коды народа.*

Ключевые слова: *Паремиология, когнитивная лингвистика, прагмалингвистика, антропоцентрическая парадигма, лингвокультурология, тюркские языки, дискурс, культурный код.*

Abstract. *This article investigates the theoretical and methodological foundations of studying proverbs from cognitive and pragmatic perspectives based on Turkic languages, specifically Uzbek, Kazakh, and Karakalpak. The paper scientifically substantiates the necessity of transitioning from a traditional structuralist approach to an anthropocentric paradigm in the study of*

paremiological units, highlighting their role as a universal linguocultural phenomenon that reflects spiritual heritage, national mindset, and cultural codes.

Keywords: *Paremiology, cognitive linguistics, pragmalinguistics, anthropocentric paradigm, linguoculturology, Turkic languages, discourse, cultural code.*

Maqollar har qanday millatning o‘tmishi va bugungi turmushini tavsiflash, taqqoslash va o‘rganishda bebaho badiiy qurol vazifasini bajaradi. XX asrning oxiri va XXI asr boshlaridagi zamonaviy chet el paremiologiyasi muammolariga bag‘ishlangan tadqiqotlar asosan tasviriy-analitik nuqtai nazardan olib borildi. So‘nggi davrdagi qoraqalpaq tilshunosligida maqollarni antropotsentrik yo‘nalishda o‘rganishga alohida e’tibor qaratilganligi bois, bu yo‘nalishdagi ishlar paremiologiyani frazeologiyadan asos olgan, biroq folklorshunoslikda o‘ziga xos o‘rin egallagan alohida fan sohasiga aylantirib, paremiologik birliklarning kommunikativ va pragmatik xususiyatlarini chuqur o‘rganish zarurligini anglatadi.

Maqollar har qanday millatning o‘ziga xos turmushi bilan bog‘lanib, asrlar davomida shakllangan va avlodlar orqali davom etib kelayotgan xalq donoligining tildagi ifodasi bo‘lib hisoblanadi. Bu yerdagi “donolik” tushunchasi — falsafaning asosi, inson borlig‘ining kafolati sifatida yuzaga chiqib, odamlar turmushidagi voqealarni oldindan bashorat qilish, ma’lumotni kognitiv qayta ishlash va muhitga moslashish jarayonlari bilan bevosita bog‘liq. Shunday qilib, maqollar insonni hayotga tayyorlovchi va yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi milliy falsafaning tayyor ma’noga ega lingvistik birliklari sifatida e’tirof etiladi.

O‘zbek tilshunosligida lingvistik pragmatikaning nazariy va amaliy masalalari XX asrning oxiri va XXI asr boshlarida juda faol o‘rganila boshlandi. Bu sohaning rivojlanishiga Sh.Saparov, S.Rahimov, N.Mahmudov, A.Nurmonov, B.Yo‘ldoshev, A.Bushuy, M.Hakimov, S.Mo‘minov, A.Mamatov, J.Yoqubov kabi olimlar salmoqli hissa qo‘shdilar.

O‘zbek pragmalingvistikasining poydevorini mustahkamlashda M.Hakimovning xizmatlari alohida. U o‘zining «O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari»[1] deb nomlangan monografiyasida pragmalingvistikaning o‘rganish obyektlarini ikki asosiy guruhga bo‘ladi:

1. Funksional-pragmatik yo‘nalish: Bunda til birliklarining kontekstdagi

pragmatik funksiyalari va ta’sir etish kuchi o‘rganiladi.

2. Diskursning pragmatik tili (tahlili): Bunda nutq vaziyati, kommunikantlar

(so‘zlovchilar) va ularning maqsadlari kompleks tarzda tahlil qilinadi.

Shuningdek, B.Yo‘ldoshev frazeologik birliklarning funksional-stilistik xususiyatlarini pragmatik nuqtai nazardan tadqiq etsa, A.Mamatov dunyoning lingvistik manzarasini kognitiv-pragmatik fenomen sifatida muhokama qiladi. Bu tadqiqotlar Maqollarning ham til tizimi va nutq jarayonidagi o‘rnini aniqlash uchun mustahkam nazariy baza bo‘lib xizmat qiladi. O‘z navbatida, B.Jo‘rayeva [6], Sh.Qalandarov [8], D.Turdaliyeva [10] va boshqalarning mehnatlarida ham bu masala bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Turkiy xalqlar, jumladan, qardosh qozoq maqollarining ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganishda Axmet Baytursin uli alohida o‘rin egallaydi. Olim o‘z ilmiy ishlarida Maqollarga ilmiy ta’rif berib, ulardan lingvistik material sifatida keng foydalandi. Qozoq paremiologiyasining yig‘ilish va nashr etilish jarayoni XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlangan bo‘lsa, uning tizimli o‘rganilishi Sovet hukumati davri bilan bog‘liq. Qozoq naqıl-maqollarini dastlabki tarzda qog‘ozga tushirishda Ch.Valixonov va I.N.Berezinning asarlari katta ahamiyatga ega. Qozoq tilshunosligida Maqollarni leksik-stilistik jihatdan maxsus o‘rgangan dastlabki olim — R.Sarsenbayev bo‘lib, uning 1961-yilda himoya qilingan nomzodlik dissertatsiyasi bu sohadagi fundamental ishlardan biri hisoblanadi [5].

Paremiologik birliklarning tildagi tabiatini aniqlash maqsadida olib borilgan tadqiqotlarning ko‘lami va yo‘nalishlari turlicha bo‘lib, ular Maqollarning murakkab tuzilishga ega ekanligining dalili bo‘lib xizmat qiladi. Adabiyotlar tahlili ko‘rsatganidek, dastlabki navbatda Maqollarning leksik-stilistik xususiyatlari turg‘un birikmalar sistemasidagi o‘ziga xos ko‘rsatkich sifatida R.Sarsenbayevning ishlarida o‘z aksini topgan [5].

Tilshunoslikning rivojlanishi bilan paremiyalarni o‘rganishda struktural yo‘nalishdan kognitiv yo‘nalishga o‘tish jarayoni sezila boshladi. Xususan, B.B.Dinayevaning tadqiqotlarida maqollarning kognitiv tabiati [4; 145], D.Begali qizining mehnatida esa ularning pragmatik aspektlari maxsus tadqiqot obyektiga aylantirildi [3; 118]. Bu yo‘nalishdagi ishlar maqollarning inson ongida bilimlarni shakllantiruvchi va kommunikativ ta’sir ko‘rsatuvchi vosita sifatidagi ahamiyatini ochib berdi.

Etnolingvistik nuqtai nazardan Sh.P.Qarsibekova maqollarni guruhlashning etnolingvistik prinsiplarini ishlab chiqib [9; 137], paremiyalarning milliy madaniyat va xalq turmushi bilan bog‘liqligini ilmiy jihatdan asosladi.

Shunday qilib, turkiy tillar, shu jumladan, o‘zbek, qozoq va qoraqalpaq tilshunosligida pragmatik yo‘nalish dastlabki metodologik qarashlardan butun bir ilmiy tizimgacha bo‘lgan rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi. Bu yo‘nalish til birliklarining, ayniqsa Maqollarning lingvokulturologik va kognitiv ma’nosini ochishda yangi ilmiy metodologiyalarni yaratmoqda.

Turkiy tillarda, shuningdek, o‘zbek tilshunosligida pragmalingvistik yo‘nalish juda faol rivojlangan bo‘lsa, qoraqalpaq tilshunosligida ham bu soha bo‘yicha dastlabki qadamlar tashlanib, tadqiqot obyektlari belgilanmoqda. Xususan, qoraqalpaq tilida nutq madaniyati va uning pragmatik qirralarini o‘rganishda U.Dauletovaning ilmiy ishlari alohida o‘rin tutadi. Shuningdek, lingvopragmatika yo‘nalishi bo‘yicha M.Qudaybergenov va A.Qazaqbayevalar o‘z tadqiqotlarini olib bormoqdalar [2; 605]. Biroq, qoraqalpaq tilshunosligida lingvistik semantika, kognitiv tilshunoslik va antropotsentrik nuqtai nazardan olib borilayotgan tadqiqotlar hamda ilmiy ishlar soni kam. Hozirgi vaqtda qoraqalpaq tilida pragmalingvistik tahlil masalasi o‘zining chuqur tadqiq etilishini kutib turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, pragmalingvistikaning asosiy maqsadi — aniq bir vaziyatda adresant (so‘zlovchi) va adresat (tinglovchi) orasidagi munosabat jarayonini o‘rganishdan iborat. Bunda so‘zlovchining niyatining tinglovchiga ta’siri, fikrlarning yetkazilishi, tushunish va qabul qilish mexanizmlari o‘rganiladi. So‘zlovchi va tinglovchi orasidagi suhbat jarayonida ular til birliklaridan foydalanib, o‘z maqsadlarini bayon qiladilar va bir-birining harakatiga turtki bo‘ladilar.

Xulosa qilib aytganda, maqollar — milliy madaniyatni aks ettiruvchi, xalq fikr-o‘yini jamlagan va ijtimoiy tajribani uzluksiz davom ettiruvchi muhim lingvokulturalogiyaviy birlikdir. Ularni kognitiv va pragmatik aspektlar birligida o‘rganish nafaqat nazariy tilshunoslik uchun, balki amaliy sohalar — tarjima, matn tahlili va diskursiv tadqiqotlar uchun ham mustahkam ilmiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Hakimov M. O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari. - Toshkent. Akademnashr. 2003.

2.Kazakbayeva A. Pragmatic Analysis Of Karakalpak Proverbs. International Journal of Research. №7,P. 605-612.

3.Бегалықызы Д. Қазақ тіліндегі мақал-мәтелдердің танымдық – прагматикалық аспектісі: фил. … ғыл. канд. дисс. – Алматы, 2002. – 118 б.

4.Динаева Б.Б. Қазақ мақал-мәтелдерінің прагма-когнитивті аспектісі. – Астана, Қазақ гуманитарлық-заң университеті, 2013. – 145 б. 154

5.Сәрсенбаев Р. Қазақ мақалдары мен мәтелдерінің лексика-стилистикалық ерекшеліктері: фил. … ғыл. канд. дисс. – Алматы, 1990. – 224 б.

6.Жўраева Б.М., Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маьнавий-услубий қўлланилиши. Филол.фан.номзоди диссертацияси. – Тошкент, 2002; Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари. Филол.фанлари докт. диссертацияси.- Самарқанд,2020;

7.Кенжемўратова С. Мақал-мәтелдердің синтаксисі: филол. ғыл. канд. ... дисс. автореф.– Астана, 2002.–28 б.

8.Қаландаров Ш. Ўзбек лингвомаданий мухитида халқ мақоллари эвфемизацияси. Филол.фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. -Қўқон, 2019;

9.Қарсыбекова Ш.П. Қазақ тіліндегі мақал-мәтелдерді топтастырудың этонолингвистикалық принциптері: дисс. ... фил. ғыл. канд. – Алматы, 2004. – 137 б.

10.Турдалиева Д. Ўзбек халқ мақолларининг лингвопоэтик хусусиятлари. Филол.фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. -Қарши, 2019.